

MTT FAOLIYATIDA BADIY – IJODIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH METODLARI

Gadoyeva Gulhayo Orif qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 17 – DMMT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar zamirida maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini rivojlantirish va olib boriladigan mashg’ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning badiiy – ijodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish masalalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so’z: MTT, maktabgacha, ta’lim, tarbiya, islohot, shaxs, badiiy, ijodiy, aqliy, intellektual, axloqiy, estetik.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘sib kelayotgan avlod va bo‘lajak mutaxassislarining barkamol bo‘lib voyaga yetishlariga alohida e’tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda, me’yoriy hujjatlarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy – texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama aqliy, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish maqsadida, quyidagi vazifalar ilgari surilgan:

- ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim – tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta’lim muassasalarida 5 – 6 yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish;
- 2200 ta maktabgacha ta’lim muassasasining moddiy – texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta’lim muassasalarini yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o‘quv – metodik qo‘llanmalar va multimediali vositalar bilan ta’minalash.¹

¹ Содикова Ш.А. “Мактабгача педагогика” дарслик. “Фан ва техноологиялар” нашриёти 2017. 66 – bet.



Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning badiiy – ijodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida mashg’ulotlar jarayonida teatrlashtirilgan faoliyatlarni tashkil etish alohida ahamiyatga ega hisoblanmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyat kunning istalgan vaqtida musiqa, tasviriy san’at va boshqa mashg’ulotlar davomida, shuningdek, ona tili, atrof – olam kabi haftalik mashg’ulotlarga singdirilgan holda tashkil etilishi mumkin

Mashg’ulotlar faqatgina turli tadbirlarga tayyorlanish uchun emas, balki o’rganish, ta’limiy va trabiyaviy ahamiyatga ega bo’lishi lozim. Mashg’ulotlarning mavzusi, shakl va usullari yagona maqsadga qaratilgan bo’lishi va o’zida nutqni shakllantirish va teatrlashtirilgan ijrochilik faoliyati ko’nikmalari; ijodkorlik muhitini shakllantirish, bolalarning ijtimoiy – hissiy rivojlanishi kabi asosiy uch maqsadni o’ziga qamrab oladi. Shuning uchun mashg’ulot davomida bolalarni matn bilan tanishtirish, ertak yoki biror asarni o’rganish, mimika, harakat, imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirish va bularni barchasini mashg’ulot davomida takrorlash imkoniyatini beradi². Qo’g’irchoq tomoshalarini ko’rish va tomosha haqida suhbatlashish, dramatizatsiyalashgan o’yinlar, kichik ertak va inssenirovkalarni takroran ijro etish, ijroning ifodaliligini shakllantiruvchi mashqlar, bolalarni ijtimoiy – hissiy rivojlaniruvchi mashqlarning barchasini teatrlashtirilgan mashg’ulotlar o’z ichiga qamrab oladi.

Shu bilan birga teatrlashtirilgan faoliyat bolalarda o’ziga ishonch, ijtimoiy ko’nikmalarni shakllantirish, u yoki bu asar qahramoni holatiga kirishda o’zini ko’rsata olish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlanirishga yordam beradi. Buning uchun mashg’ulot davomida turli imkoniyatlardan MTT tarbiyachilariga quyidagi tasvsiyalarni beramiz:

1. Bolalarga o’zlarini istagan rolni tanlashga imkon berish;
2. Bosh rolga faol bolalar bilan birga uyatchang va tortinchoq bolalarni ham jalb etish;
3. Ixtiyoriy tanlov asosida rol taqsimlash (bolalar tarbiyachi qo’lidan personajlarning rasmi chizilgan ixtiyoriy kartochkani tanlaydilar);
4. Hamma bolalar tomonidan tomosha qahramonlarini navbat bilan almashib ijro etish.

Bolalarni «muntazam ishtirok etuvchi» va rol ijro etuvchilarni «muntazam tomosha qiluvchi», ya’ni «ishtirokchi va tomoshabin» kabi guruhlarga bo’linib qolishi qat’iyan man etiladi. Mashg’ulot davomida bolalarda sahnaga chiqishdan qo’rqish kabi tushunchalar paydo bo’lishini oldini olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi bolaga biror qahramonni ijro etib berish yoki ko’rsatib berish topshirig’ini berayotganda bolaning ichki imkoniyatlarini ham inobatga olishi lozim. Buning uchun tarbiyachi oldida muhim ikki vazifa turadi:

- bolaning ichki kechinmalari, o’y – xayollari nima bilan bandligini, fikrlari qanchalik jiddiyligini tushunish, anglashga harakat qilish;
- bolaga o’z imkoniyatlarini to’la ko’rsata olishga imkoniyat berish, uning faolligini oshirish maqsadida unga alohida sharoit yaratish³.

Shundan kelib chiqib, mazkur mashg’ulotlarni o’tkazishda har bir bolaning amaliy faoliyati uslubiy jihatdan asoslangan bo’lmog’i lozim.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining yakkama yakka ishlashi – teatrlashtirilgan faoliyatning yana bir muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Bunday ta’limni ko’p hollarda yakka tartibdagi ta’lim deb ham atashadi. Yakka tartibdagi faoliyat davomida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o’rtasida uzviy aloqa yuzaga keladi. Bu tarbiyachiga bolani yanada chuqurroq o’rganish, uning ichki kechinmalarini tushunish, anglashga harakat qilish; ta’lim jarayonidagi bo’shliqdarni aniqlash, mashg’ulotlar

² Акулова О. “Театрализованные игры”. // Дошкольное воспитание., 2005, №4.

³ Акулова О. “Театрализованные игры”. // Дошкольное воспитание., 2005, №4.



davomida ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish imkoniyatini beradi. Shuningdek, yakka tartibdagagi ta’lim mashg‘ulot, dramatizatsiyalashtirilgan o‘yinlar, tomoshaga tayyorlanishga yordam beradi. Mashg‘ulot jarayonida olingan bilim, ko‘nikma va malakalar keyingi faoliyat davomida mustahkamlanadi, boyitiladi, tizimlashtiriladi.

Teatrlashtirilgan o‘yinlar bolalarda katta qiziqish va bu faoliyatga nisbatan muhabbat uyg‘otadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlar bolalar tarbiyasida kuchli pedagogik vosita sifatida katta ahamiyatga ega, chunki, bolalar o‘yin davomida o‘zlarini erkin, ruhiy jihatdan xush kayfiyatda his etadilar. Shunday qilib, o‘yin jarayonida bolalarda mustaqil harakatlanish ko‘nikmalari shakllanadi, bu bolalarnda kattalarning yordamisiz biror ertak qahramoni yoki sahma ko‘rinishini erkin ko‘rsatib bera olish, o‘zi o‘ylab topgan harakatlarni nazorat qilish, mazkur harakatlarni ketma ketlikda teatrlashtirilgan faoliyatning turli ko‘rinishlarida ko‘rsatib bera olish ko‘nikmalarini shakllantiradi⁴.

Bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatga qiziqishlari so‘nmasligi uchun muntazam ravishda yangiliklar ustida ishslash, bolalarga yangi ertak, to‘qima, asar qahramoni va boshqalar haqida yangi ma’lumotlarni berib borish lozim. Ijodkorlik ko‘nikmalarini, bolaning yakka tartibdagagi bilimlari va ijtimoiy tajribasini rivojlantirishda, bolaning shaxs sifatida shakllanishida mavzu – makon haqidagi tushunchalarni to‘g‘ri anglashi muhim hisoblandi. Bu muhit nafaqat teatrlashtirilgan faoliyatni ta’minlab beradi, balki, mustaqil ta’limning o‘ziga hos yo‘nalishi hisoblandi. Shuning uchun bola o‘rtoqlari bilan birga teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishni qanchalik xoxlasa, o‘z istagiga asosan yakkalanish holatlarini esdan chiqarmagan holda hissiy – irodaviy xususiyatlarini, qiziqishlarini, ijodkorlik qobiliyatlarini, afzallik va kamchiliklarini inobatga olish lozim bo‘ladi.

Shunday qilib, mustaqil teatrlashtirilgan faoliyatda bolalar nafaqat atrof olam, hayot tajribalari, insonlar orasidagi munosabatning go‘zalligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladilar, balki, bu jamiyatda yashashga, o‘z shaxsiy hayotlarini qurishga o‘rganadilar, bu esa shaxsdan ijodiy faollikni (e’tibor, tasavvur, mantiq, hissiy xotira, yaxshi rivojlangan nutq, mimika) talab qiladi, ya’ni jamiyatda o‘zini munosib tuta olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Содикова Ш.А. “Мактабгача педагогика” дарслик. “Фан ва техноологиялар” нашриёти 2017. 66 – bet.
- Акулова О. “Театрализованные игры”. // Дошкольное воспитание., 2005, №4.
- Ergashevna, S. N. (2020). Technology of teaching students to work hard through folklore. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(9).
- Norbosheva M. Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyat asoslari. Termiz. 2018 yil.12 – bet.

⁴ Norbosheva M. Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyat asoslari. Termiz. 2018 yil.12 – bet.

